



Qobil YUSUPOV^a 

*^aSenior Lecturer at the Department of Social and Specialized Sciences
Namangan Regional Branch of the Professional Development Center
International Islamic Academy of Uzbekistan.
Quvonch Street 1, 160123, Namangan, Uzbekistan
E-mail: iphone12x12@icloud.com*

HINDISTON O'LKASIDA HADIS ILMIGA OID ASARLARNI O'RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqola XIX–XX asrlarda Hindiston yarimorolida hadis ilmining rivojiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar, harakatlar va ulamolarning ilmiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Unda «ahli hadis», «barlaviya», «qodiyoniya», «ahli Qur'on» kabi harakatlarning vujudga kelish sabablari, ularning asoschilari – Siddiq Hasanxon, Ahmad Rizoxon Barlaviy, G'ulom Ahmad Qodiyoniy, Abdulloh Chakravaliy kabi shaxslarning e'tiqodiy qarashlari va faoliyati tahlil qilinadi. Har bir maktabning hadisga munosabati, hadisdan foydalanish uslubi, tafsir va fiqh bilan bog'liq yondashuvlari qiyosiy tarzda ko'rib chiqilgan.

Maqolada, shuningdek, mazkur harakatlarga ilmiy raddiya bergan Anvarshoh Kashmiriy, Shabbir Ahmad Usmoniy, Xalil Ahmad Sahoranfuriy, Yusuf Bannuriy, Abdulhay Laknaviy kabi olimlarning hadis sharhlari va metodologik yondashuvlari yoritilgan. Ushbu olimlar tomonidan «Fayz al-Boriy», «Fath al-Mulhim», «Bazl al-Majhud», «Maorif as-sunan» kabi nodir asarlar yaratilib, ularning har birida hadis roviylari, istilohlar, sanad va matn tahlili, hanafiy fiqhi asosida hukm chiqarish kabi jihatlar chuqur o'rganilgan. Ayniqsa, raddiyalar ularning ilmiy jasorati va salohiyatini ko'rsatadi.

Maqolada Hindistonda hadis ilmi rivojining tarixiy, ijtimoiy va fiqhiy asoslari yoritiladi hamda bu hududda shakllangan boy ilmiy an'analar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ahli hadis, Tahonaviy, muhaddis, dorululum, hadis, amoliy, Devband, hanafiy.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE STUDY OF HADITH LITERATURE IN THE INDIAN SUBCONTINENT

Abstract. This article explores the development of the science of Hadith in the Indian subcontinent during the 19th and 20th centuries, focusing on key religious movements, ideological trends, and prominent scholars. It analyzes the emergence, core beliefs, and Hadith-related methodologies of major schools such as Ahl-i Hadith, Barlaviya, Qadiyani (Ahmadiyya), Ahl al-Qur'an, and Shi'a. The article examines the contributions and theological stances of figures like Siddiq Hasan Khan, Ahmad Riza Khan Barlaviya, Ghulam Ahmad Qadiyani, and Abdulloh Chakravaliy, highlighting their interpretations and applications of Hadith, as well as their views on tafsir and fiqh.

In addition, the article gives special attention to the responses provided by notable hadith scholars of the time—such as Anwar Shah Kashmiri, Shabbir Ahmad Usmani, Khalil Ahmad Saharanpuri, Yusuf Banuri, and Abdul Hay Lakhnawi—who authored critical rebuttals and scholarly commentaries. Their renowned works, including «Fayz al-Bari», «Fath al-Mulhim», «Bazl al-Majhud», and «Ma'arif al-Sunan», demonstrate rigorous analysis of narrators, terminology, sanad and matn criticism, and the derivation of legal rulings within the Hanafi framework.

The article shows how the scholarly community in India did not limit Hadith studies to narration alone, but approached it through a synthesis of jurisprudence, theology, and contextual critique. These efforts reflect the rich intellectual tradition of Hadith scholarship in South Asia and underscore the importance of scholarly rebuttal literature in preserving orthodoxy.

Keywords: ahl-i hadith, Tahawi, muhaddith, Darul uloom, hadith, amali, Deoband, hanafi.

KIRISH

Islom ilmlari tarixida hadis ilmi alohida o'rin egallaydi. Hadislar islom aqidasi, fiqh, axloq va boshqa ko'plab sohalarining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Bu borada musulmon olamining turli mintaqalarida, jumladan, Hindiston o'lkasida ham boy ilmiy meros yuzaga kelgan.

Hindiston islom madaniyati va ilmiy hayotining qadimiy va sarmazmun markazlaridan biri bo'lib, u yerda hadis ilmi rivojining o'ziga xos yo'nalishlari, uslublari va metodologik asoslari shakllangan. Ayniqsa, Dorululum Devband kabi ta'lim maskanlari hadis ilmining Hindistonda chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Ushbu mintaqada hadis o'rganishga nisbatan o'ziga xos yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular usul al-hadis, sanad va matn tanqidi, rivoyatlarning toifalanishi kabi ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur mavzuni o'rganish bugungi kunda nafaqat tarixiy va ilmiy, balki metodologik tahlil nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Chunki, Hindiston hadis maktabining metodologik yondashuvlarini o'rganish orqali hadis ilmining rivojlanishidagi mintaqaviy turfalikni, metodik o'ziga xoslikni va ilmiy tafakkur taraqqiyotini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Shu bois, quyida Hindiston o'lkasida hadis ilmiga oid asarlarni o'rganishning metodologik asoslarini tahlil qilish, mavjud manbalar asosida ularning ilmiy yondashuvlarini aniqlash va tahliliy baholash maqsad qilib olingan.

ASOSIY QISM

«Ahli hadis» yoki «as'hob al-hadis» (Islom ensiklopediyasi, 2004:35) atamasi ilk islom davrida qo'llanila boshlagan. Vaqt o'tishi bilan bu atama «hadisga ko'ra amal qiluvchi kishi» ma'nosiga ega bo'la bordi. Ammo, XIX asrga kelib, bu atama bilan Hindistondagi yangi bir jamoa nomlandi. Uning asosiy g'oyasi to'rt mazhabga ergashishni rad etib, hadisga to'g'ridan-to'g'ri (yuzaki ma'nosiga tayanib) amal qilish edi (Birishik, 2004:7).

Mazkur jamoaga Hindiston yarimorolida Sayyid Nazir Husayn Dehlaviy va Siddiq Hasan Xon Qinnavjiy tomonidan asos solingan (Bayur, 1950). Shu vaqtgacha bu o'lkada faqat hanafiy va ba'zi hududlarda shofeiy mazhabi mavjud bo'lgan.

Ikki yuzdan ortiq asar yozgan Siddiq Hasan Xon Qinnavjiy hamda Nazir Husayn Dehlaviy qarashlari

shogirdlari ta'sirida qisqa vaqt ichida Hindiston bo'ylab tez tarqala boshladi. Madrasalar tashkil qilish, jurnallar chiqarish, gazeta chop etish, ilmiy majlislar tashkil etish ishlari boshlab yuborildi. Mazkur jamoa Devband universitetida tahsil olgan va keyinchalik «ahli hadis» fikrlarini qabul qilib, jamoaga qo'shilgan Sanoullah Amritsariy ishtirokida katta kuchga ega bo'ldi (Birishik, 2004:8).

Siddiq Hasanxon Bahubal amirasi Shohjahon Begim (vaf. 1901-y.) bilan turmush qurganidan keyin qo'lga kiritgan imkoniyatdan foydalanib, bu shaharni o'z fikri doirasidagi ilm-fan markaziga aylantirdi. Shuningdek, bosmaxonalar tashkil etib, asosan tafsir, hadis ilmiga oid kitoblar nashr ettirib, ilmiy doiralarga bepul tarqattirdi. Bundan tashqari, «Bilqisiya», «Sulaymoniyya», «Jahongiriya» va «Siddiqiya» nomli madrasalar ochilib, boshqa joylardan ham talabalar kelishi uchun imkoniyat yaratildi. Ular amal qiladigan hadislarining asosiy qismi arab tilidan urdu tiliga tarjima qilingan bo'lib, ayrimlarida urducha sharhlar ham mavjud edi. Siddiq Hasanxon juda katta shaxsiy kutubxona yaratdi va uning faoliyati uchun ko'p miqdorda mablag' jalb qilib, qimmatbaho qo'lyozmalarni to'pladi.

Hindistondagi islohotchi harakatlardan yana biri o'zini «Jamoati ahli sunna», deb ataydigan barlaviya maktabidir. Uning asoschisi asli Qandahorlik Ahmad Rizoxon Barlaviy (vaf. 1921-y.) edi (Bayur, 1950:390).

Maktab izdoshlari Ahmad Rizoxonni «A'lo Hazrat», deb tilga oladilar. Barlaviy yoshligidayoq ta'lim olishni to'xtatib, fatvo berish va asarlar yozish bilan mashg'ul bo'lgan. Birorta ham ilmiy muassasada o'qimagan, aksariyat kitoblarni otasidan tahsil olgan. Uning otasi Mavlono Naqiy Ali Xon (vaf. 1297/1880) ham birorta ilm dargohini bitirmagan. Bundan tashqari, birinchi ustozi Mirzo G'ulom Qodir (vaf. 1883-y.), Mavlono Abdulali Rampuriy (vaf. 1885), Mavlono Abul Husayn Nuriy (vaf. 1906-y.) kabilardan saboq olgan. Murodobod, Saharonpur, Devband, Aligarh kabi shaharlarda katta ta'lim muassasalari tashkil etilgan bo'lishiga qaramay, otasidan ta'lim olishni ma'qul ko'rgan.

U 1892-yilda «Nadvat al-ulamo» tashkil etilishi da qatnashgan bo'lsa-da, 1897-yilda «Nadva»dan butunlay ajralib chiqdi. U yerdan ketibgina qolmay, mazkur tashkilotga qarshi chiqishni boshlab yubordi. Hatto, tashkilot a'zolarini kufrda ayblab, ularga raddiya sifatida bir qancha kitoblar yozdi.

Ahmad Rizoxonning tanqidiy munosabati faqat «Nadva» bilan cheklanib qolmay, mazhablarga qarshi bo'lgan «ahli hadis», o'zi kabi hanafiy va sufiy bo'lgan

Devband ulamolariga ham keskin qarshilik ko'rsatdi. U Qosim Nonutaviy, Rashid Ahmad Gango'hiy, Xalil Ahmad Saharonpuriy, Ashraf Ali Tahonaviy kabi Devband olimlarini kufirda ayblagan. Barlaviya maktabning boshqasidan farqi shundaki, u o'zini aqidada moturidiy, amalda hanafiy, tariqatda sufiy, deb ta'riflaydi.

Bugungi kunda barlaviylarga qarshi eng yangi raddiya asar Ilyos Gummaning 2012-yil urdu tilida nashr etilgan «Firqayi barlaviyat Pak va Hind ka tahqiqi jaizah» nomli kitobi hisoblanadi.

XIX asr oxirida vujudga kelgan harakatlardan yana biri qodiyoniya (Ahmadiya). Mazkur harakatga 1839-yilda Panjob viloyatining Qodiyon qishlog'ida tug'ilgan G'ulom Ahmad tomonidan asos solingan. G'ulom Ahmad 1868-yildan boshlab insholar yoza boshlaydi. Uning urdu tilida «Barohini Ahmadiyya» nomli kitobi nashr etilganidan keyin odamlarning u haqidagi fikrlari o'zgardi. U «Vahiy toxtab qolmasligi kerak», «Payg'ambarga to'liq ergashgan kishi unga berilgan g'ayrioddiy hislatlarga ega bo'ladi» kabi mavzularni muhokama qilgan (Bayur, 2004:33).

Ahmad Qodiyoniy Islom dinini himoya qilish maqsadida yozgan maqolalari bilan musulmonlarning mehrini qozongan bo'lsa-da, asarlarida islom aqidasiiga to'g'ri kelmaydigan fikrlarni aralashtirib yuborgan. U bir muddat uzlatga chekindi. Bu orada «vahiy», deb hisoblagan ba'zi ovozlarni eshitganini odamlarga aytib, atrofiga tarafdorlar to'pladi. Hindistonning Panjob viloyatida 1885-yilda 14-hijriy asrning mujaddidi, 1891-yili xristianlar va musulmonlar kutgan masih va mahdiy ekanini, 1902-yilda esa payg'ambarlikni da'vo qilgan. O'z tarafdorlari tomonidan «Yerdagi Isoning ruhi», «Krishna avatari», «payg'ambar», deb e'tirof etilgan. Shu yo'l bilan aholining barcha qatlamidan o'ziga izdosh topa olgan. Ahmad Qodiyoniy Qur'on va hadisni o'z qarashlariga muvofiq talqin qilgan. Uning qarashlarini qabul qilmagan kishilarni kofir, deb e'lon qilib, izdoshlariga ular bilan aloqa o'rnatishni man qilgan (Kashmiriy, 2008:7-8).

XIX asr oxirida vujudga kelgan harakatlardan yana biri «Ahli Qur'on» maktabidir. Ushbu maktab a'zolari hadislarini turli yo'llar bilan inkor qilganlari uchun «munkirul hadis», ya'ni hadisni inkor etuvchilar nomi bilan atalgan. Ularning mafkuraviy yetakchisi Sayyid Ahmad Xon, guruh va jamoa asoschisi Abdulloh Chakravaliy (vaf. 1914-y.) hisoblanadi. Sayyid Ahmad Xon, Charog' Ali va Sayyid Amir Ali tomonidan ilgari surilgan g'oya Abdulloh Chakravaliy tomonidan yanada tizimlashtirildi va 1902 yilda «Ahli

zikir va-l-Qur'on» nomi bilan atala boshladi. Lohurni o'ziga markaz qilib tanlagan Abdulloh Chakravaliy shu yerda nutq so'zlab, o'z g'oyalarini yoyish maqsadida kitoblar yozdi. Raqiblarining tanqidlariga javob berish uchun «Ishaat al-Qur'on» nomli jurnal chop ettirdi (Bayur, 2004:25).

Dastlab, harakat markazi Aligarx universiteti bo'lgan. Lohurning harakat markaziga aylanishiga nafaqat Abdulloh Chakravaliyning sa'y-harakatlari, balki G'ulom Ahmad Parvezning u erda juda faol bo'lgani ham yordam berdi. Ammo, Lohur bilan chegaralanib qolmay, keyinchalik boshqa mintaqalarda ham o'z vakillariga ega bo'ldi. Harakatning Bihar viloyatidagi yetakchisi va vakili sifatida Muhibbulhaq Azimobodiy (vaf. 1953-y.) tilga olinadi. 1914-yilda Chakravaliy vafotidan so'ng, harakat boshqaruvini Xoja Ahmaduddin Amritsariy (vaf. 1936-y.), keyin Hofiz Muhammad Aslam Charakpuriy (vaf. 1955-y.) va G'ulom Ahmad Parvez egalladi. G'ulom Ahmad Parvez o'z faoliyati va chop ettirgan kitoblari bilan uzoq vaqt Pokistonning ilmiy va siyosiy maydinda faol bo'lgan. O'limidan so'ng uning harakat vakili ekanini ilmiy jihatdan isbotlay oladigan birorta dalil topilmadi (Bayur, 2004:27).

«Ahli Qur'on»ning eng samarali tarmog'i G'ulom Ahmad Parvez yaratgan «Tahriri tului islom» bo'lgan. 1938-yilda Dehlida paydo bo'lgan harakat Hindiston bo'linganidan keyin 1947-yilda Karochiga ko'chib o'tdi. G'ulom Ahmad bu harakatning yakuniy markazi sifatida Lohurni tanlab, 1958-yilda shu yerda qo'nim topgan (Bayur, 2004:25). Pokistonning tashkil topishi bilan kuchaygan harakat 1960–1980 yillar oralig'ida G'ulom Ahmadning sa'y-harakatlari bilan kollej va universitet yoshlariga o'z ta'sirini o'tkazdi (Bayur, 2004:27).

Harakatning Qur'onni yagona manba sifatida qabul qilishiga asosiy sabab «ahli hadis» harakatining hadislarini noto'g'ri tushunishiga qarshi yuzaga kelgan reaksiya bo'ldi. «Ahli hadis» tarafdorlari matnlarning zohiriga amal qilishlari «ahli Qur'on» vakillariga o'z tarafdorlarini to'plash imkonini berdi (Bayur, 2004:24). Chunki, hadislarini noto'g'ri talqin qilish Payg'ambar (s.a.v.)shaxsini kamsituvchi asosiy omil, deb tushunildi. Bundan bir yo'nalish ikkinchisini paydo bo'lishiga turtki bo'lganini ko'rish mumkin.

XIX asrda Hindistonda raddiya berilgan aqidaviy yo'nalishlardan biri shialar edi.

Shialarning Hindistonga kirib kelishi dastlab, Safaviylar davrida boshlangan. Vaqt o'tishi bilan Hindistonda shialar ko'payib borib, ularning

ko'plab ta'lim markazlari tashkil etildi (Çalışkan, Erol, 2020:151).

O'lkadagi shialar ilmiy jihatdan ham o'ziga xos faol xarakterga ega bo'lgan. Misol uchun, 1810-yilda Surat shahrida «al-Jomea as-sayfiya» nomli universitet tashkil etilgan. Bundan tashqari, Laknav shahrida «isno-ashariyya» shialaridan Sayyid Nozim tomonidan boshlang'ich maktabdan doktoranturagacha ta'lim berish uchun asos solingan «Jomea Nozimiya» nomli universitet ham mavjud. Hindistondagi eng yirik shia jamoasini tashkil etuvchi ja'fariya mazhabi mintaqa va Erondagi tadqiqot markazlari bilan ilmiy-ijtimoiy hamkorlik olib borgan. Ular Hindistonning turli shaharlarida, xususan, Laknav va Bombayda ilmiy maktablar tashkil etib, ta'lim orqali o'z e'tiqodlarini yoyishga harakat qilganlar (Çalışkan, Erol, 2020:156).

Bu harakatlarninigi barchasi Hindistonda hadis-shunoslikning rivojlanib borishiga turtki berdi. Sababi, an'anaviy islom tarafdorlari, bir tarafdin, hadisga mukkasidan ketgan toifalalar, ikkinchi tarafdin, hadis inkorchilariga, boshqa tarafdin bid'at-xurofotga ergashuvchilarga qarshi kurashishga majbur edilar. Natijada Hindiston hududida yashab ijod qilgan olimlar tomonidan hadis ilmiga oid ko'plab asarlar yozildi. Ular orasida olti hadis to'plamlariga sharhlar bitilib, hadis istilohlari, roviylar tabaqoti, hadis illatlari, hukmga oid jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan asarlar mavjud. Shu bilan birga, har bir muallif tomonidan hadis va fiqh ilmlari uyg'un holda o'rganilib, o'lkada paydo bo'lgan yuqorida zikri kelgan harakatlarga ilmiy uslubda raddiyalar yozilgan.

Shunday olimlardan biri muhaddis Anvarshoh Kashmiriy (vaf. 1933-y.) bo'lib, uning bu borada xizmati katta bo'lgan. Kashmiriy Devband universitetida o'n yildan ortiq «Sahihi Buxoriy» kitobidan dars berdi. Shogirdi Badri Olam (vaf. 1965-y.) ustozining talabalar oldidagi barcha darslarini jamlab, «Amoliy» (Muhammad Amin Ibn Obidin, 2020:79-80) (shogirdlar tomonidan jamlanib, ustoz nomidan chop etilgan asar) ko'rinishida chop ettirgan mazkur asar «Fayz al-Boriy» nomi bilan tanilgan. Shogirdi unga «al-Badr as-sariy» nomli mo'jazgina hoshiya ham bitgan. Anvarshoh Kashmiriyning mazkur asari hanafiy mazhabi asosida yozilish bilan bir qatorda avvalgilarning kitobida uchramagan daqiq nuqtalarga e'tibor qaratilgani bilan ham ajralib turadi (Usmoniy, 2021:223). Kitob 2005-yil Bayrutdagi «Dor al-kutub al-ilmiya» nashriyoti tomonidan 6 jildida Badri Olam tahqiqi ostida chop etilgan.

Bundan tashqari, Kashmiriyning «at-Tasrih bimo tavotara fi nuzul al-Masih» asari bo'lib, muallif unda Qodiyoniya toifasiga raddiya bergan. Asar Kashmiriyning shogirdi Muhammad Shafe Usmoniy tomonidan tartiblanib, keyinchalik Bannuriy hoshiyasi hamda tadqiqotchi olim Abdulfattoh Abu G'udda tahqiqi ostida chop etilgan. Shuningdek, Abu G'udda «Tarojim sitta min fuqaho al-olam al-islomiy» kitobida shunday deydi: «Ushbu asar oxiri zamonda Iso (a.s.) yer yuziga tushishini inkor etgan toifalarga qarshi dalillarni o'zida jamlagan» (Abu G'udda, 1997:20).

Anvarshoh Kashmiriy «at-Tasrih» asarida mavzuga doir 76ta hadis, 25ta sahobiy va tobeinlarning so'zlarini jamlagan. Yusuf Bannuriy buni e'tirof etib: «Kashmiriy ushbu kitobini «Qodiyoniya» toifasiga raddiya sifatida yozish vaqtida mavzuga doir hadislarni jamlash maqsadida ko'plab musnad, jome, sunan, mu'jam janridagi hadis to'plamlarini mutola qilib chiqdi. Hatto, 40 ming hadisni o'zida mujassam etgan Imom Ahmadning «Musnad» kitobini boshidan oxirigacha o'qidi. Bu bugungi kunda juda kam topiladigan sabrli olimlarning hislatidir» (ibn Solih, 1997:47), degan.

Tadqiqotchi olim Abdulfattoh Abu G'udda «Tarojim sitta min fuqaho al-olam al-islomiy» kitobida mazkur iqtibosni keltirib ortidan hind hadisshunoslari chuqur ilmiy salohiyatga ega bo'lgani, keng qamrovli bahslari bilan ulamolar orasida mashhur ekanini e'tirof etgan. Darhaqiqat, o'lkada yashab ijod qilgan olimlar arab, fors tillaridagi kitoblardan ham keng istifoda qilishgan. Abu G'udda «at-Ta'liqot al-hofila» asarida ta'kidlashicha, Abdulhay Laknaviy bitta asar yozish uchun mavzuga doir 150ga yaqin kitobdan foydalangani, uning shaxsiy kutubxonasidan esa 1071ta arab tilidagi, 1870ta fors tilidagi kitoblar o'rin olgani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

O'lkada hadis ilmi borasida yozilgan asarlardan yana biri, tadqiqotchi olim Shabbir Ahmad Usmoniy (vaf. 1949-y.) tomonidan yozilgan «Sahihi Muslim» sharhi bo'lib, u «Fath al-Mulhim bi-sharhi Sahihi Muslim» deb nomlangan. Imom Muslimning «Sahihi»ga «Fath al-Boriy» va «Umdat al-Qoriy» kabi qomusiy tarzda yozilgan bironta ham sharh mavjud emas. Imom Navaviy (vaf. 1277-y.), Muhammad ibn Xalifa Ubay (vaf. 1423-y.) kabi olimlarning sharhlarida esa, faqat hadisdan ko'zlangan maqsad yoritilib, munozarali bahslarga batafsil to'xtalilmagan. Muallif Shabbir Ahmad Usmoniy aynan Imom Buxoriyning yuqoridagi sharhlari qolipida sharh

yoziishga kirishgan. Shuningdek, ushbu asar hanafiy muhaddislari tomonidan arab tilida yozilgan birinchi sharh hisoblanadi (Baraniy, 2011:6). Shabbir Ahmad Rashid Ahmad Gango'hiy hamda Kashmiriy kabi ustozlaridan o'zlashtirgan bilimlariga tayanib, hadisning matn va sanadiga aloqador barcha jihatlarini yoritib, zamonidagi adashgan toifalarga raddiyalar berdi (Usmoniy, 2021:224).

Muhammad Zohid Kavariy mazkur asarning ikki jildini ko'zdan kechirib, o'zining maqolasida shunday deydi: «Sahih Muslim»ga yozilgan sharhlarda roviylar haqidagi ma'lumotlar yetarli emasligini kuzatish mumkin. Shabbir Ahmad Usmoniyning sharhida esa bironta ham masala ochiq qolmagan. Muallif o'zidan avval yozilgan kitoblarda uchramagan hadis ilmiga oid ma'lumotlarni taqdim eta olgan. Imom Muslimning «Sahih»iga yozilgan sharhlar orasida bu kabi har bir izlanuvchi kishi muhtoj bo'ladigan qimmatli xulosalarni uchratish juda qiyin» (Kavariy, 2021:224).

Kavariy mazkur xulosasi davomida Hindiston o'lkasida ijod qilgan olimlarni tavsiflab: «Hind o'lkasida hadis ilmiga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar o'zgacha tus olmoqda. Shabbir Ahmad mazkur «Fath al-Mulhim bi-sharhi Sahih Muslim» asariga katta hajmda muqaddima yozib, unda fiqh ilmi qoidalari orqali muhaddislarning maqsadlariga olib boradigan qarashlarni tadqiq etdi» (Usmoniy, 2021:75), degan.

Shabbir Ahmad Usmoniy Hind o'lkasini mustamlakachi inglizlardan ozod qilish uchun tuzilgan harakatga boshchilik qilgani bois, asar nihoyasiga yetmay qoldi. «Nikoh» kitobining oxiriga yetganida muallif vafot etgan. Keyinchalik zamonaviy tadqiqotchi olim Muhammad Taqiy Usmoniy otasining ko'rsatmasi bilan asarning qolgan qismini muallif uslubida to'liq sharhladi. Kitob 2006-yil Damashqdagi «Dor al-qalam» nashriyoti tomonidan 6 jildda chop etilgan. Shuningdek, Shabbir Ahmad ko'p yillar davomida Imom Buxoriyning «Sahih»idan ham dars bergan (Hindiy, 2018:26). Uning ilmiy xulosalari shogirdlari tomonidan jamlanib, «Fazl al-Boriy» nomi bilan chop etilgan.

Hindiston hududida yashab ijod qilgan Xalil Ahmad Sahoranfuriy (vaf. 1927-y) ham «Bazl al-majhud fi halli sunani Abi Dovud» nomli asar yozib, o'lkada hadis ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Sahoranfuriyning mazkur asari Imom Abu Dovud (vaf. 888-y.)ning «Sunan» nomli hadis to'plamini sharhi hisoblanadi (Baraniy, 2011:7). Muallif bu kitobida yashab turgan davriga qadar yozilgan barcha

sharhlarni o'zida jamlagan bo'lib, har bir masalaga daqiq yondashuvi, keng qamrovli bahslari hamda o'lkada hukm surgan salbiy illatlarga o'z munosabatini bildirgani bilan ajralib turadi.

Abul Hasan Nadaviy mazkur kitob haqida: «Ushbu asar barcha tan olgan muhaddislar uslubida yozilib, unda hadis istilohi, roviylari, o'zaro zid kelgan jihatlar bilan bir qatorda hadisdan hukm olish, undan ko'zlangan maqsadni ochib berishiga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif hadis ilmiga oid har bir qarashini dalil bilan hujjatlagan. Uning bu boradagi xulosalari ulamolar tomonidan e'tiborga olinadigan bo'ldi» (Sahoranfuriy, 2014:42-43), degan.

Sahoranfuriy mazkur asarini yozishda ustozlari Rashid Gango'hiyning qarashlaridan keng foydalanib, bu borada uning odobini ham o'zlashtirgan. Ya'ni, ayrim muhaddisdan xato sodir bo'lsa, unga nisbatan iliq munosabatda bo'lishga harakat qilgan. Ko'plab muhaddislar tomonidan ijobiy fikr bildirilgan roviylar haqida imkon qadar mo'tadil yo'lini tutgan. Misol uchun, «Payg'ambar (s.a.v.) kumush uzukni bir kun taqib keyin tashlab yubordilar» mazmunida kelgan rivoyatda barcha muhaddislar bundagi xatolik Imom Zuhriy tomonidan sodir bo'lganini ta'kidlashgan. Aslida, rivoyat «Payg'ambar (s.a.v.) tillo uzukni bir kun taqib keyin tashlab yubordilar» ko'rinishida kelgan. Sahoranfuriy bu kabi holatlarda keskinlikdan yiroq bo'lib, unga ustozining uslubi bilan yondoshgan (Sahoranfuriy, 2014:247-248).

O'lkada hadis ilmiga doir yozilgan «Maorif as-sunan» asari muallifi Muhammad Yusuf Bannuriy Imom Termiziyning hadis to'plamini sharhlagan. Bannuriy hadis ilmida Anvarshoh Kashmiriydan dars olgan. Termiziyning mazkur to'plamiga Kashmiriyning ham «al-Arf ash-shaziy» nomli sharhi mavjud (Baraniy, 2011:7). Ammo, bu kitob qisqa xulosaviy asar bo'lgani sabab, Bannuriy ustozidan o'zlashtirgan hadis ilmiga oid bilimlari yordamida alohida sharh yozdi.

Asar Kashmiriy va Yusuf Bannuriyning hadis ilmiga doir qarashlarini qamrab olgan bo'lib, tushunish osonligi, zamonaviy uslubda yozilgani uning Imom Termiziy to'plami sharhlari orasida o'ziga xos afzalligini belgilab beradi (Usmoniy, 2021:236). Shuningdek, asarda Abdurahmon Muborakfuriy tomonidan «Tuhfat al-ahvaziy» kitobida hanafiy mazhabiga yetkazilgan ta'nalarga birma-bir raddiya ham berilgan.

Asar yozilish jarayonida «Haj» kitobiga yetganida muallif vafot etgan. Kitob 2020-yil Karochidagi

«Jamiat al-ulum al-islomiya» nashriyoti tomonidan 6 jildda chop etilgan.

O'lkada hadis ta'limi ham yuqori darajaga chiqqan. Jumladan, Rashid Ahmad Gango'hiy bir yilda bir marta olti hadis to'plamidan dars berib tugatgan. Uning darslari shogirdlari tomonidan jamlangan bo'lib, hozirda faqat Buxoriy va Termiziyning hadis to'plamiga qilgan sharhi chop etilgan (Baraniy, 2011:6).

Devband universiteti asoschisi Muhammad Qosim Nonutaviy islom asoslariga ta'na yetkazmoqchi bo'lgan toifalarga raddiya ko'rinishida urdu tilida asar yozgan. Kitob Muhammad Sojid Qosimiy tomonidan «Rudud ala e'tirozat muvajjaha ilal-islam» nomi bilan arab tiliga tarjima qilinib, 2011-yil Devbanddagi «Akademiya Shayx al-hind» nashriyoti tomonidan chop etilgan (Nonutaviy, 2011:7).

Shuningdek, ham hadis, ham fiqh olimi Abdulhay Laknaviyning «at-Ta'liq al-mumajjad» asari Imom Muhammad tomonidan jamlangan Imom Molikning «Muvatto» to'plamiga hoshiya tarzida yozilgan (al-Laknaviy, 2022:46). Asarda muallif tomonidan ma'lum mavzulargagina to'xtalib o'tilgan bo'lsada, hadis ilmi, roviylar tabaqoti, hanafiy mazhabida hukm chiqarib olish kabi bahslarga ko'proq e'tibor qaratilgani bois, kitob sharh ko'rinishini olgan.

Kitob 2022-yil Damashqdagi «Dor al-qalam» nashriyoti tomonidan Abdulfattoh Abu G'udda taqrizi hamda Taqiyuddin Nadaviy tahqiqi ostida 3 jildda chop etilgan.

Abdulhay Laknaviyning yana bir «Naqd avhom Siddiq Hasanxon» asari raddiya sifatida yozilgan benazir manba hisoblanadi. Unda Abdulhay Laknaviy tomonidan Siddiq Hasanxon qarashlari tahlil qilingan bo'lib, muallif asosan u tarafidan roviylar vafot etgan sanasiga doir sodir etilgan kamchilikni ochib bergan. Bundan tashqari, Siddiq Hasanxonning Ibn Taymiya qarashlariga moyil bo'lgan fikrlari tanqid qilinib, asl hukmlar hanafiy mazhabiga binoan asoslab berilgan.

Kitob Iordaniyaning «Dor al-fath» nashriyoti tomonidan Saloh Muhammad Abul Hoj tahqiqi ostida 2000-yil chop etilgan.

Muallif boshqa kitoblarida hind aholisini Siddiq Hasanxonning salafiylikka oid qarashlariga ergashib ketishlaridan ogohlantirgan. Jumladan, «Ibroz al-g'oy» (al-Laknaviy, 1998:4), «Tazkira ar-roshid» (al-Laknaviy, 1998:98), «al-Asar al-marfua» (al-Laknaviy, 1984:18), «Umdat ar-rioya» (al-Laknaviy, 2019:65)

kabi asarlarida bu haqda zikr qilib o'tgan. Shunday bo'lsada, Laknaviy Siddiq Hasanxon tomonidan sodir bo'lgan kamchilikka barham berishda mo'tadillik bilan munosabatda bo'lgan. Shu bois, Siddiq Hasanxon Laknaviyning vafot etgani haqidagi xabarni eshitgach: «Bugun ilm zavqi vafot etdi, oramizdagi muzokaralar faqat ilm hosil qilish uchun edi», deya Bahubal shahrida uch kun motam e'lon qiladi (al-Laknaviy, 2016:38).

Shuningdek, Laknaviyning «al-Ajviba al-fozila» asari Lohurda yashovchi olim Muhammad Husayn lohuriy tomonidan berilgan hadis ilmiga oid savollarga javob tarzida yozilgan (al-Laknaviy, 2016:7). Muallif mazkur kitobida «Sunan» va boshqa hadis to'plamlarida kelgan hadislarning darajasi, roviy o'zining rivoyatiga zid amal qilishi hamda zaif hadisga amal qilish hukmi, ko'rinishda o'zaro zid bo'lgan hadislarini muvofiqlashtirish, ulardan birini ustun qo'yish jihatlari borasida ulamolarning qarashlariga to'xtalib o'tgan. Shu bilan birga, ayrim hadis borasidagi tanqidlarga raddiya ham berib o'tgan. Unga tadqiqotchi olim Abdulfattoh Abu G'udda «at-Ta'liqot al-hofila ala al-Ajviba al-fozila» nomli hoshiya yozib asarni yana ham boyitdi. Asar o'ndan ortiq marotaba chop etilgan bo'lib, oxirgisi Qohiraning «Dor as-salom» nashriyoti tomonidan 2016-yil nashr etildi.

MUHOKAMA

Laknaviy tomonidan yozilgan «ar-Raf' va-t takmil fi-l-jarh va-t-ta'dil» asari jarh va ta'dil sohasida muhim manba bo'lib, unda roviylarning tabaqalanishi, ayblovlarning aniq va noaniq tomonlari hamda hadis ilmiga oid keng qamrovli bahslar yoritilgan. Muallif, ayrim mahalliy olimlarning hadis matni va sanadini noto'g'ri talqin qilish holatlarini ko'rib, ushbu asarni yozishga qaror qilgan (al-Laknaviy, 2016:49). Asar mavzu doirasidagi taxminan 150ta kitobdan xulosalar jamlab tayyorlangan.

Hanafiy muhaddislari tomonidan jarh va ta'dil borasida ikkita muhim asar yozilgan: biri «ar-Raf' va-t takmil fi-l-jarh va-t-ta'dil», ikkinchisi esa «E'lo as-sunan» muqaddimasi sifatida tanilgan «Inho as-sakan»dir. Abu G'udda muallif Zafar Ahmad Tahonaviy bilan kelishgan holda asarga nisbatan «Qavoid fi ulum al-hadis» nomini qo'llay boshlagan. Tahonaviy asarni yozishda Laknaviy asaridan keng foydalanib, uni to'ldirgan (Usmoniy, 2018:3). Abu G'uddaning hoshiyasi esa ushbu ikkala asarni umumlashtirgan.

Laknaviyning asariga Abu G'udda tomonidan yozilgan hoshiya uning deyarli yarmini tashkil etib, bunda u «Qavoid fi ulum al-hadis»dan keng foydalanagan. Ushbu hoshiya muallif hayotlik chog'i, 1883-yil Laknavda «Anvori Muhammadiy» nashriyoti tomonidan Imom Zahabiyning «Mezon al-e'tidol» asari oxirida alohida raqam bilan chop qilingan.

E'tiborli jihati, Hindiston ulamolari tomonidan yozilgan mazkur asarlar o'ndan ortiq nashrlarda chop etilgan. Hadis ilmi va istilohiga doir «Zafar al-amoliy fi muxtasar al-Jurjoni» hamda Abdulloh ibn Abbos rivoyat qilgan «Yetti osmon va yerlarni yaralishi» haqidagi hadisga raddiya sifatida yozilgan «Zajr an-nos ala inkori asari Ibni Abbos» asari ham Laknaviyga taalluqlidir. U Abu Dovudning hadis to'plamiga hoshiyalar yozgan, «Sahihi Buxoriy»ning alohida boblarini sharhlagan va Termiziyning «Sunan»idan dars bergan. Talabalar uning sharhlarni yozib olib chop ettirganlar (Baraniy, 2011:79-80).

NATIJA

Hind olimlarining hadis sohasidagi izlanishlari, xususan, Zafar Ahmad Tahonaviyning «E'lo as-sunan» asari mo'tabar manbalardan olingan hadislarni jamlagani bois ishonchli hadislar to'plami sifatida qabul qilinadi. Asar sanad va matn nuqtai nazaridan chuqur o'rganilgan bo'lib, hadis sohasidagi tadqiqotchilar uchun fundamental manbadir. Shuningdek, unda hanafiylik bilan bir qatorda boshqa mazhablarning qarashlari ham qiyosiy tarzda keltirilgan, bu esa asarning qiyosiy fiqh (ilm al-xilof) sohasidagi ahamiyatini ham oshiradi.

Mazkur asar fiqhiy masalalarga muvofiq tarzda tuzilgan bo'lib, mavzular klassik fiqh kitoblariga xos ravishda ibodat, muomalot va uqubot shaklida tasniflangan. Asarning «Kitob at-tahorat»dan boshlab «Kitob al-hiyal»gacha bo'lgan boblarida hadislar orqali fiqhiy masalalar bayon etilgan. Asarda kitob, bob va fasl tartibi belgilangan. Asarga uchta muqaddima ilova qilingan: birinchisi – Tahonaviy tomonidan yozilgan «Qavoid fi ulum al-hadis» bo'lib, hanafiy yondashuvga asoslangan va hadis usulini keng yoritgan; ikkinchisi – Habib Ahmad Kironaviy qalamiga mansub «Favoid fi ulum al-fiqh»; uchinchisi esa – «Abu Hanifa va as'hobuhu al-muhaddisun» nomli muqaddima bo'lib, Tahonaviy tomonidan yozilgan. Birinchi muqaddima Ibrohim Jonon tomonidan turk tiliga «Yangi usuli hadis» nomi bilan tarjima qilingan.

Tahonaviy «E'lo as-Sunan» asarini yigirma yil davomida yozgan. Bu uning ilmiy izchilligi, sabr-toqati va puxta tadqiqotchilik salohiyatidan dalolat beradi. Asar yuqori aniqlik bilan yozilgan bo'lib, muallifning «ahli hadis» guruhiga qarshi ilmiy asoslangan pozitsiyasini ifoda etadi va uning boy ilmiy merosining yorqin namunasi sanaladi.

Hindiston hududida hadis ilmi bo'yicha yaratilgan asarlarning muhim o'ziga xos jihatlaridan biri – ularning katta qismi arab tilida yozilganidir. Bu holat o'sha davrdagi muhaddislarning fors va urdu tillari bilan birga arab tilini ham mukammal egallaganidan dalolat beradi. Abdulfattoh Abu G'uddaning Laknaviy haqida «millati hind bo'lsa-da, arab tilida mahorat bilan yozgan» degan e'tirofi, shuningdek, Yusuf Bannuriyning ustoziga arab tilida yozgan maktublari va qasidasi ham bu holatni tasdiqlaydi.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan tushuniladiki, Hindiston o'lkasida hadis ilmi rivojiga oid asarlar nafaqat mazmunan boy, balki metodologik jihatdan ham yuksak darajada shakllangan. Ushbu mintaqada faoliyat yuritgan muhaddislar va ilmiy maktablar hadisni o'rganishda o'ziga xos usullarni ishlab chiqqan bo'lib, ularning yondashuvlari global hadis ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Shunday ekan, Hindiston hadis maktabining ilmiy-metodologik asoslarini o'rganish orqali hadis ilmining mintaqaviy xususiyatlari, tahliliy yondashuvlari hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini chuqurroq anglash mumkin. Bu esa bugungi zamonaviy hadis tadqiqotlari uchun ham nazariy, ham amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hindiston diyorida ijod qilgan hadis olimlarining ko'pchiligi hadis to'plamlarini ilmiy hалqalarda an'anaviy shaklda dars berishgan. Darsdan o'zlashtirilgan ko'nikmalar shogirdlar tomonidan jamlanib, ustoz nomidan chop etilgan. Bu ko'plab hanafiy mutaqqaddim olimlarning uslubi hisoblangan «amoliy» janrida kitob yozish an'anasi hisoblanadi. Manashu ham ularning yana bir o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Hind olimlari aholga islom ta'limotini sof holatda tushuntirishga harakat qilgan va bu yo'lda muhim asarlar yaratgan. Ularning ko'plab asarlari raddiya xarakteriga ega bo'lib, aqida va fiqh, hadis masalalaridagi noto'g'ri qarashlarga ilmiy javob sifatida yozilgan. Masalan, Abdulhay Laknaviy «Naqd avhom Siddiq Hasanxon» asarida Siddiq Hasanxonning «ahli hadis» maktabi nuqtayi nazarini tanqid qilgan va ularning fikrlarini

an'anaviy hadis ilmi mezonlari asosida rad etgan. Xuddi shuningdek, Anvarshoh Kashmiriy «at-Tasrih bimo tavotara fi nuzul al-Masih» nomli asarida Qodiyoniya toifasining aqidaviy qarashlariga raddiya bergan (Davûdî, Yıldırım, 1995:226).

Zafar Ahmad Tahonaviy esa o'zining mashhur «E'lo as-sunan» asarini aynan «ahli hadis» maktabi e'tirozlariga javoban yozgan. U nafaqat hanafiy mazhabi dalillarini bayon qilgan, balki qarshi tomon fikrlarini ham tahlil qilib, ularning noto'g'riligini ilmiy asosda isbotlagan. Tahonaviy hanafiy mazhabini asoslashda Hindistonlik avvalgi olimlarning asarlaridan samarali foydalangan. U turli manbalarni tizimli tahlil etib, mavzuga oid qarashlarni bir joyga jamlash orqali chuqur va asosli ilmiy yondashuv namoyon etgan. Tahonaviyning uslubi tahliliy, tafsiliy va obyektivligi bilan ajralib turadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu G'udda, Abdulfattoh. (1997). Tarajim sitta min fuqaho al-olam al-islomiy. Bayrut: Dor al-bashair al-islamiya.
2. Azhariy, Muhammad Axtar. (2019). Majmua rasoil Toj ash-sharia Azhariy (Sheroz Ahmad Malik Azhariy tahqiqi ostida). Qohira: Dor usul ad-din.
3. Baraniy, Abdurahmon. (2011). Ulamo Devband va xadamatuhum fi ilm al-hadis. Devband: Akademiya shayxul hind.
4. Bannuriy, Muhammad Yusuf. (2020). Maorif as-sunan sharh Sunan at-Termiziy (J. VI). Karachi: Jamiat al-ulum al-islamiya.
5. Birishik, Abdulhamid. (2004). Hint alt-kitasında İslâm araştırmalarının dünü bugünü: Kurumlar, ilmi faaliyetler, şahıslar, eserler. Dîvân İlmi Araştırmalar.
6. Bayur, Yusuf Hikmat. (1950). Hindiston tarixi (J. III). Anqara: Turk tarih kurumu basimevi.
7. Bulgur, Durmuş. (2004). Ticaretten sömürgecilige XIX. yüzyılda Hindistan ve İngiliz hâkimiyeti. Dîvân İlmi Araştırmalar.
8. Çalışkan, Göktuğ. Erol, Mehmet Seyfettin. (2020). Hindistan Şiiliği ve İran-Hindistan ilişkilerinde Şiilerin yeri. Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi Lisansüstü Eğitim Enstitüsü, Uluslararası İlişkiler Anabilim Dalı, 4(2), 148–193.
9. Davûdî, Halid Zaferullah & Yıldırım, Ahmet. (1995). Eşref Ali Tânevi Hadislerle Tasavvuf. İstanbul: İnsan Yayınları.
10. Gumman, Mavlono Ilyos. (2012). Firqa-i barlaviya Paku Hind kâ tahqiqi jaiza. Pokiston: Maktaba ahli sunna val jamoa.
11. Hindiy, Shabbir Ahmad. (2018). Mabodiy ilm al-hadis va usulhi. Bayrut: Dor al-bashair al-islamiya.

12. Ibn Obidin, Muhammad Amin. (2020). Sharh uqud rasm al-muftiy (tahqiq: Doktor Ali Usmon Jarodiy). Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya.
13. Ibn Solih, Su'ud. (2013). Rasoil al-Imom Muhammad Zohid Kavariy. Iordaniya: Dor al-fath.
14. Islom ensiklopediyasi. (2004). Mualliflar jamoasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
15. Kashmiriy, Anvarshoh. (2008). At-Tasrih bimo tavotara fi nuzul al-Masih. Karochi: Maktaba dor al-ulum
16. Kavariy, Muhammad Zohid. (2015). Maqolot al-Kavariy. Qohira: Dor as-salam.
17. al-Laknaviy, Abdulhay. (1984). Osor al-marfua fil axbar al-mavzua (Muhammad Said Zag'ul tahqiqi ostida). Bayrut: Dor al-kurub al-ilmiya.
18. al-Laknaviy, Abdulhay. (1998). Majmua rasoil Laknaviy (J. VI). Karachi: Idorat al-Qur'on va-l-ulum al-islomiya.
19. al-Laknaviy, Abdulhay. (2016). Al-Ajviba al-fozila lil-as'ila al-ashara al-komila. Qohira: Dor as-salam.
20. al-Laknaviy, Abdulhay. (2016). Ar-Raf vat-takmil fi-l-jarh va-t-ta'dil. Bayrut: Dor al-bashoir al-islomiya.
21. al-Laknaviy, Abdulhay. (2019). Umdat ar-rioya ala sharh al-viqoya (J. VII). Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya.
22. al-Laknaviy, Abdulhay. (2022). At-Ta'liq al-mumajjad ala Muvatto Muhammad (J. III). Damashq: Dor al-qalam.
23. Nonutaviy, Muhammad Qosim. (2011). Rudud ala e'tirozot muvajjaha ila-l-islom. Devband: Akademiya Shayx al-hind.
24. Ömer, Tay. (2021). Hanefî, Mâturîdî gelenekten gelen Diyobend ekolü'nün tasavvufa bakışı. Tasavvur: Tekirdağ İlahiyat Dergisi.
25. Tahonaviy, Zafar Ahmad Usmoniy. (2018). Qavoid fi ulum al-hadis. Bayrut: Dor al-bashair al-islamiya.
26. Sahoranfuriy, Xalil Ahmad. (2014). Bazl al-majhud fi halli Sunani Abi Dovud. Bayrut: Dor al-bashoir al-islomiya.
27. Usmoniy, Muhammad Taqi. (2021). Maqolot va buhus. Damashq: Dor al-qalam.

REFERENCES

1. Abu Ghuddah, 'Abd al-Fattaḥ. (1997). Tarajim Sittah min Fuqaha' al-'Alam al-Islami. Beirut: Dar al-Basha'ir al-Islamiyyah.
2. Azhariy, Muhammad Akhtar. (2019). Majmu'a Rasa'il Taj al-Shari'a Azhariy. Under the supervision of Sheroz Ahmad Malik Azhariy. Cairo: Dar Uşul al-Din.
3. Barani, 'Abd al-Rahman. (2011). 'Ulama' Deoband wa Khadamatuhum fi 'Ilm al-Ḥadith. Deoband: Akadimiyyat Shaykh al-Hind.
4. Bannuri, Muhammad Yusuf. (2020). Ma'arif al-Sunan Sharḥ Sunan al-Tirmidhi, Vol. VI. Karachi: Jami'at al-'Ulum al-Islamiyyah.

5. Birişik, Abdulhamid. (2004). Hint altkıtasında İslâm araştırmalarının dünü bugünü: Kurumlar, ilmi faaliyetler, şahıslar, eserler. Divân İlmi Araştırmalar.
6. Bayur, Yusuf Hikmat. (1950). Hindiston Tarixi, Vol. III. Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.
7. Bulgur, Durmuş. (2004). Ticaretten Sömürgecilige: XIX. yüzyılda Hindistan ve İngiliz Hâkimiyeti. Divân İlmi Araştırmalar.
8. Çalışkan, Göktuğ, Erol, Mehmet Seyfettin. (2020). Hindistan Şiiliği ve İran-Hindistan ilişkilerinde Şiilerin yeri, 4(2), 148–193. Ankara Hacı Bayram Veli University, Graduate Institute of Education, Department of International Relations.
9. Dawudi, Khalid Zafarullah & Yıldırım, Ahmet. (1995). Eşref Ali Tanevi: Hadislerle Tasavvuf. İstanbul: İnsan Yayınları.
10. Gumman, Mawlana Ilyas. (2012). Fırqah-i Barlawiyyah Pak-Hind ka taḥqıqı ja 'izah. Pakistan: Maktabah Ahl al-Sunnah wa al-Jama'ah.
11. Hindi, Shabbir Aḥmad. (2018). Mabadi' 'Ilm al-Ḥadith wa Uşulihi. Beirut: Dar al-Basha'ir al-Islamiyyah.
12. Ibn 'Abidin, Muhammad Amin. (2020). Sharḥ 'Uqud Rasm al-Mufti. Ed. Dr. 'Ali 'Uthman Jarudi. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
13. Ibn Şalih, Su'ud. (2013). Rasa'il al-Imam Muḥammad Zahid al-Kawthari. Jordan: Dar al-Fath.
14. Collective Authors. (2004). Islom Ensiklopediyasi. Tashkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat Ilmiy Nashriyoti.
15. Kashmiri, Anwar Shah. (2008). al-Taşriḥ bima Tawatawa fi Nuzul al-Masiḥ. Karachi: Maktabah Dar al-'Ulum.
16. Kawthari, Muhammad Zahid. (2015). Maqalat al-Kawthari. Cairo: Dar al-Salam.
17. al-Lakhnawi, 'Abd al-Ḥayy. (1984). Athar al-Marfu'ah fi al-Akhbar al-Mawḍu'ah. Ed. Muḥammad Sa'id Zaghlul. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
18. al-Lakhnawi, 'Abd al-Ḥayy. (1998). Majmu'a Rasa'il Lakhnawi, Vol. VI. Karachi: Idarat al-Qur'an wa al-'Ulum al-Islamiyyah.
19. al-Lakhnawi, 'Abd al-Ḥayy. (2016). al-Raf' wa al-Takmil fi al-Jarḥ wa al-Ta'dil. Beirut: Dar al-Basha'ir al-Islamiyyah.
20. al-Lakhnawi, 'Abd al-Ḥayy. (2016). al-Ajwibah al-Faḍilah li al-As'ilah al-'Asharah al-Kamilah. Cairo: Dar al-Salam.
21. al-Lakhnawi, 'Abd al-Ḥayy. (2019). 'Umdat al-Ri'ayah 'ala Sharḥ al-Wiqayah, Vol. VII. Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
22. al-Lakhnawi, 'Abd al-Ḥayy. (2022). al-Ta'liq al-Mumajjad 'ala Muwaṭṭa' Muḥammad, Vol. III. Damascus: Dar al-Qalam.
23. Nanutawi, Muḥammad Qasim. (2011). Rudud 'ala I'tiraḍat Muwajjahah ila al-Islam. Deoband: Akadimiyyat Shaykh al-Hind.
24. Tay, Ömer. (2021). Hanefi, Maturidi gelenekten gelen Diyobend ekolünün tasavvufa bakışı. Tasavvur: Tekirdağ İlahiyat Dergisi.
25. Ṭahanawi, Zafar Aḥmad 'Uthmani. (2018). Qawa'id fi 'Ulum al-Ḥadith. Beirut: Dar al-Basha'ir al-Islamiyyah.
26. Usmani, Muhammad Taqi. (2021). Maqalat wa Buḥuth. Damascus: Dar al-Qalam.
27. Şahiranpuri, Khalil Aḥmad. (2014). Bazl al-Majhud fi Hall Sunan Abi Dawud. Beirut: Dar al-Basha'ir al-Islamiyyah.

